

**“MUHABBATNOMA” VA “QISSASI RABG‘UZIY” ASARLARIDAGI
QO‘LLANILGAN QO‘SHIMCHALAR
O‘RTASIDAGI FARQLAR**

Mamatova Nurshoda

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Muratova Nafisa Baxtiyarovna**
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti ona tili
va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali Xorazmiyning “Muhabbatnoma” va Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarlarida qo‘llanilgan qo‘shimchalarni taqqoslaymiz va bu ikki asar haqida qisqacha fikr-mulohazalar yuritamiz.

Kalit so‘zlar: “Muhabbatnoma”, “Qissasi Rabg‘uziy”, til, uslub, qo‘shimchalar, kelishik, janr, nusxa.

“Muhabbatnoma” asari Xorazmiy qalamiga mansub bo‘lib, o‘zbek va fors-tojik tillarida yozilgan. Asar Oltin O‘rda xoni Muhammad Xo‘jabekka bag‘ishlangan. Asarning yozilgan vaqt 1353-yil hisoblanadi. “Muhabbatnoma” o‘zbek mumtoz adabiyotida noma janrining ilk yorqin namunasidir. Asarning bizgacha yetib kelgan 2 nusxasi mavjud va ular arab va uyg‘ur tillarida bitilgan. Asarning bu nusxalari bir-biridan farq qiladi. Hozirgi kunda asarning ikki nusxasi ham Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi. “Muhabbatnoma” 1959-yilda A. Sh. Shcherbak tomonidan o‘zbek va rus tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan.

Nosiriddin Rabg‘uziyning qalamiga mansub “Qissasi Rabg‘uziy” asari esa 1309-1310-yillarda yozilgan bo‘lib, asarda Odam Atodan tortib Muhammad (s.a.v) gacha bo‘lgan payg‘ambarlar hayoti aks ettirilgan. “Qissasi Rabg‘uziy” o‘zbek nasriy

adabiyotining birinchi yirik namunasidir. Bu asar “Payg‘ambarlar qissasi”, “Avliyolar qissasi” deb ham ataladi. Muallif asarni Nosiriddin To‘qbug‘anining iltimosiga ko‘ra yozib tugatadi. “Qissasi Rabg‘uziy” 72 ta qissadan tashkil topgan. Asarning XV asrga oid qo‘lyozma nusxasi mashhur matnshunos K. Gronbeh tomonidan 1948-yilda Kopengagen shahrida ko‘chirilib, nashr etilgan. “Qissasi Rabg‘uziy” ning XV asrga oid qadimiy nusxasi hozirgi paytda Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Bu asarning qo‘lyozma nusxalaridan yana biri Rossiya Sharshunoslik Institutining Sank-Peturburg bo‘limida saqlanmoqda va u XV-XVI asrlarda ko‘chirilgan deb taxmin qilinadi.

Bu ikki asar o‘zbek adabiyotchiligining nodir namunalaridan hisoblanadi. Har ikki asar ham bugungi kunda ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan o‘rganilmoqda va tadbiq etilmoqda. “Muhabbatnoma” va “Qissasi Rabg‘uziy” asarlarida qo‘llanilgan qo‘sishimchalar bugungi kun o‘zbek tili asosiy qo‘sishimchalaridan anchagina farq qiladi.

“Muhabbatnoma” asarida jo‘nalish kelishigi qo‘sishimchasi -na, -a tarzida keladi. Masalan, gavharina (gavhariga), mulkina (mulkiga), nurina (nuriga) va shu kabi shakllarda uchratishimiz mumkin. “Qissasi Rabg‘uziy” da esa bu qo‘sishimcha -ga, -g‘a, -ka, -qa, -a holida qo‘llanilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Masalan, yaziqa (dalaga), evika (uyiga), ag‘zig‘a (og‘ziga) tarzida keltirilgan.

“Muhabbatnoma” asarida tushum kelishigi qo‘sishimchasi -ne, -ni shakli bilan birga -i tarzida ham keladi. Masalan, ko‘nglimi (ko‘nglimni), o‘zimi (o‘zimni) kabi tarzida kelgan. “Qissasi Rabg‘uziy” asarida esa -ni, -n tarzida uchraydi (“adaqin”-“oyog‘in”).

“Muhabbatnoma” asarida ravishdosh -gach, -g‘ach, -ban affikislari orqali ifodalangan bo‘lsa, “Qissasi Rabg‘uziy” asarida faqat -iban shaklida uchraydi. Hozirgi kelasi zamon qo‘sishimchasi “Muhabbatnoma” da -isar shaklida hosil qilingan bo‘lsa, “Qissasi Rabg‘uziy” asarida -miz qo‘sishimchasi orqali yuzaga kelgan va o‘g‘uz tilining unsuri hisoblangan -uz (-iz) affikisi bilan ham tuslanadi.

Xorazmiyning asarida sonning ayiruv son turi -ar tarzida kelgan bo'lsa, Xorazmiyning asarida jamlovchi son -agu, tartib son -inch ko'rinishida kelganini ko'rishimiz mumkin.

Bir davrda yaratilgan bu ikki nodir asarni solishtirish orqali o'sha davrda yaratilgan asarlar tili jihatdan bir-biriga yaqin bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari bir davrga mansub bu asarlarda bir-biriga o'xshash bo'lgan ko'plab qo'shimchalarini uchratamiz. Bu asarlarda foydalanilgan qo'shimchalarini bir-biri bilan taqqoslash orqali o'tgan davr hamda hozirgi davr tili bir-biriga qanchalik yaqin bo'lganini taxmin qilishimiz ham mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1. Tursunov U, O'rino boyev B, Aliyev A. O'zbek adabiy tili tarixi T.: "O'qituvchi", 1995. -B. 264*
- 2. Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. "Yozuvchi", 1-2-kitob, T.: 1990-1991*
- 3. O'zbek adabiyoti tarixi. Ak.nashr 5 tomlik 1-tom 1977*
- 4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil*
- 5. Aftondil Erkinov. Zahar Hakimov. „Moziydan Sado“. 2.(44).2009.*